

## INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDAGI TURIZM SOHASIGA OID ATAMALARNING QIYOSIY TADQIQI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7876723>

**Yulchiyeva Dilnoza Anvarovna**

*“O`zbek tili va tillarni o`rgatish” kafedrasini o`qituvchisi*

*Farg`ona politexnika instituti,*

*E-mail: omad2449@mail.ru*

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada turizmga oid bo`lgan bir qator atamalar ingliz va o`zbek tillarida qiyoslangan va taxlil qilingan. Turizm- bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining muhim jabhalaridan biri bo`lib kelmoqda. Turizmning yangi turlarini paydo bo`lishi bilan yangi terminlari ham vujudga kelmoqda. O`tgan asrda turli sohalarga oid terminlar o`zbek tiliga rus tili orqali Yevropa tillaridan o`zlashgan bo`lsa, bugungi kunga kelib, to`g`ridan to`g`ri chet tillaridan o`zlashmoqda.

### **Kalit so`zlar.**

*atama. turizm, tur, buyurtma, mehmonxona, soha, obyekt*

## СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

**Юлчиева Дилноза Анваровна**

*преподаватель кафедры “Узбекский язык и обучение языкам”*

*Ферганский Политехнический Институт*

*Электронная почта: omad2449@mail.ru*

### **Аннотация.**

В данной статье анализируется и сравнивается ряд терминов, связанных с туризмом на английском и узбекском языках. Туризм сегодня является одной из важнейших отраслей экономики страны. С появлением новых видов туризма появляются новые термины. В прошлом веке термины, относящиеся к различным областям, были заимствованы из русского на узбекский язык через европейские языки, но сегодня они заимствованы непосредственно из иностранных языков.

### **Ключевые слова.**

*термин, туризм, тур. заказ, отель, промышленность, объект.*

## COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TERMS OF TOURISM IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

**Yulchiyeva Dilnoza Anvarovna**

*Teacher at the Department of "Uzbek language and teaching languages"*

*Fergana Polytechnic Institute*

*E-mail: omad2449@mail.ru*

### **Annotation.**

*The article analyzes the comparative features of terms related to tourism in English and Uzbek. Nowadays tourism is one of the most important sectors of the country's economy. New terms are appeared with the advent of new types of tourism. In the last century, terms related to various fields were borrowed from Russian into Uzbek through European, but today they are borrowed directly from foreign languages.*

### **Key words.**

*term, tourism, tour, order, hotel, industry, object.*

### **Kirish**

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishni o'zining asosiy maqsadi qilib belgilab oldi. Bu ishda turizm sohasi ham yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Turizm nafaqat o'tmishni o'rganish, o'zga xalqlar va elatlar bilan tanishish, ularning madaniy yodgorliklaridan bahramand bo'lish, shuningdek, u katta biznes hamdir.

### **Adabiyotlar Tahlili Va Metodologiya**

Xorijiy tillarni o'qitishning kompleks tizimini yaratish hamda respublikaning jahon hamjamiyatida yanada integratsiyalashuviga alohida e'tibor qaratilishi nafaqat xorijiy tillarni o'rganish yoki o'qitishda, turli xil lug'atlar tuzishda, balki tarjima adekvatligiga erishishda ham muhim ahamiyat kasb etib, bu, o'z navbatida, maxsus nazariy va amaliy tadqiqotlarni taqozo qiladi. O'zbekiston Reapublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi" dagi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida" gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm, Madaniyat, Madaniy me'ros va Sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish to'grisida" farmonidan kelib chiqqan holda o'zbek terminologiyasi sohasining predmeti, maqsadi va vazifasini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan bosh masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, talabalarda

terminologiyaning maxsus ilmiy-texnikaviy ma'nomlarni ifodalovchi termin yoki so'z birikmalari tizimi, uning muayyan adabiy til so'z boyligida albatta mavjudligi, leksikaning ajralmas bir qismi ekanligi, terminlar bilan leksika orasida farq borligi xususida bilim va ko'nikmalar hosil qilish, terminlar shakllanishida intralingvistik va ekstralingvistik omillarning roli, terminlarning struktur-grammatik qurilishi qatlamlari, hosil bo'lish yo'llari, terminlar tarkibidagi leksik-semantik jarayonlar, terminlarni tartibga solish, muvofiqlashtirish, terminologik tadqiqotlar, terminologik lug'atlar borasida ma'lumot berish muhim vazifalardan hisoblanadi.

So'ngi yillarda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi borasida juda ko'plab ishlar olib borilmoqda. Jumladan, iqtisodiyot rivojining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan turizm sohasida ham jadal o'zgarishlarning guvohi bo'lyapmiz. Bu sohadagi tubdan o'zgarishlar 2016-yildan boshlangan va bugungi kunda jadal rivojlanishda davom etmoqda. Turizm - iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Bu sohadagi o'zgarishlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, u hududlarning jadal rivojlanishini ta'minlay oladi. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda, dedi Shavkat Mirziyoyev. Yurtboshimizning bugungi kunda turizm sohasiga oid chiqarayotgan qaror va farmonlarini bu boradagi kamchiliklarni to'ldirishga va turizmni mamlakat miqyosiga olib chiqishga tashlangan katta qadamlar desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Fikrimizning isboti sifatida, Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha 1-navbatdagi chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori turizm sohasida qilinayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tardi.

### **Natijalar**

Turizm sohasi oxirgi 30 yil ichida ayniqsa jadal sur'atlarda rivojlandi. Bu vaqt oralig'ida xalqaro turistlar soni 3,8 marta, bu sohadan keladigan foyda 25 martaga o'sdi. Hozirgi kunda turizm sohasiga dunyo yalpi mahsulotining 6 foizi, xalqaro sarmoyalarning 7 foizi, ish o'rinlarning har 16 chisi, dunyo iste'mol harajatlarining 12 foizi to'g'ri kelmoqda. Bugungi kunda turizm-jahon miqiyosidagi iqtisodiyotning juda kuchli tarmog'i bo'lib, bu sohaga juda ko'p sonli xodimlar, asosiy vositalar va yirik kapital mablag'lar jalb qilingan. Turizm yirik biznes, katta pul va global miqiyosdagi jiddiy siyosatdan iborat.

Bugungi kunda jamiyatning rivojlanishi bilan sayyoramizning ko'plab aholisi turizm sohasiga jalb qilinmoqda. 1995–1997-yillar mobaynida sayohat qiluvchilar sonining barqaror o'sish tendensiyasi yiliga o'rtacha 4 foizga kuzatilib, 2008- yildan Jahondagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sababli bu sohadagi faollikning kamayganligi qayd qilindi. Turizm sohasi ko'pgina mamlakatlarda shiddat bilan rivojlanayotgan industriyaning ijtimoiy-iqtisodiy tarmog'i hisoblanadi. Butunjahon turizm tashkilotining (BTT) baholashiga ko'ra, turizm xizmatlari rivojlangan shaharga tashrif buyurgan 100 nafar turist 20 ming AQSH dollar atrofida mablag' sarflaydi, ya'ni har bir turist tomonidan bir sutkada shaharga 200 AQSH dollari miqdorida foyda kelishi mumkin.

Turizm infratuzilmasi va industriyasi turizmga turdosh bo'lgan bir necha tarmoqlarni ham rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari turizmning rivojlanishi yana bir katta muammo bo'lgan ishsizlikni hal qilishga yordam beradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatga tashrif buyurgan har 20 nafar turist, 1 ta bevosita turizm sohasida va 2 ta turizmga bog'liq bo'lgan xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida yangi ishchi joylarning ochilishiga yordam beradi. Shu bilan birga mahalliy mintaqalarning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir qilib, jumladan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini, mahalliy sanoat mahsulotlarini va milliy hunarmandchilik mahsulotlarini sotishga yordam beradi.

Turizm ko'pgina mamlakatlar iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u mahalliy aholi bandligini, mehmonxonalarni to'ldirish, restoran, tomosha tadbirlari, chet el valyutasining kelib tushishini ta'minlaydi. Turizmning ichki iqtisodiy tabiati turist tashrif buyurgan mamlakatda o'z mablag'ini, albatta sarflab ketishini taqozo etadi. Turizm mahalliy turistik resurslar ekspluatatsiyasiga asoslanadi va buning evaziga shu mintaqa yoki mamlakat foyda olishi kerak bo'ladi.

Xalqaro turizm - mamlakat fuqarosining chet davlatlarga turistik maqsadlarda chiqishi va chet davlat fuqarolarining turistik maqsadlar bilan ushbu davlatga tashrif buyurishi hisoblanadi. Xalqaro turist tushunchasiga ko'ra, tashrif buyurgan xorijiy davlatga 24 soatdan kam bo'lmagan muddatga kelgan va malakaviy faoliyatiga haq to'lanmaydigan vaqtinchalik tashrif buyurgan turistlar kiradi. Bu kabi turistlarga xizmat ko'rsatishda ingliz tilining o'rnini beqiyos. Jaxonning deyarli har bir burchagida turizmga oid xalqaro terminlarni xamma birday tushunadi va farqlay oladi.

### **Muhokama**

Biz bu maqolada turizmga oid boʻlgan bir qator terminlarni ingliz va oʻzbek tillarida qiyoslab koʻrib chiqamiz.

1. Total tourism internal demand: Total tourism internal demand, is the sum of internal tourism consumption, tourism gross fixed capital formation and tourism collective consumption (TSA:RMF 2008, 4.114). It does not include outbound tourism consumption.

Turizmning umumiy ichki talabi: Turizmning umumiy ichki talabi - bu ichki turizm iste'moli, turizmning yalpi asosiy kapitalini shakllantirish va turistik jamoa iste'moli yig'indisi (TSA:RMF 2008, 4.114). Bu tashqariga turistik iste'molni o'z ichiga olmaydi.

2. Tourism: Tourism refers to the activity of visitors (IRTS 2008, 2.9).

Turizm: Turizm tashrif buyuruvchilarning faolligini bildiradi (IRTS 2008, 2.9).

3. Tourism characteristic activities: Tourism characteristic activities are the activities that typically produce tourism characteristic products. As the industrial origin of a product (the ISIC industry that produces it) is not a criterion for the aggregation of products within a similar CPC category, there is no strict one-to-one relationship between products and the industries producing them as their principal outputs (IRTS 2008, 5.11).

Turistik xarakterli faoliyat: Turistik xarakterli faoliyat odatda turistik xarakterli mahsulotlar ishlab chiqaradigan faoliyatdir. Mahsulotning sanoat kelib chiqishi (uni ishlab chiqaradigan ISIC sanoati) shunga o'xshash CPC toifasidagi mahsulotlarni yig'ish mezonini bo'lmaganligi sababli, mahsulotlar va ularni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar o'rtasida ularning asosiy sifati qat'iy birma-bir munosabatlar mavjud emas. (IRTS 2008, 5.11).

4. Tourism connected products: Their significance within tourism analysis for the economy of reference is recognized although their link to tourism is very limited worldwide. Consequently, lists of such products will be country-specific (IRTS 2008, 5.12).

Turizm bilan bog'liq mahsulotlar: ularning turizm bilan bog'liqligi butun dunyo bo'ylab juda cheklangan bo'lsa-da, ularning turizm tahlilidagi referent iqtisodiyot uchun ahamiyati e'tirof etiladi. Shunday qilib, bunday mahsulotlar ro'yxati har bir mamlakatga xos bo'ladi (IRTS 2008, 5.12).

5. Tourism consumption: Tourism consumption has the same formal definition as tourism expenditure. Nevertheless, the concept of tourism consumption used in the Tourism Satellite Account goes beyond that of tourism expenditure. Besides the amount paid for the acquisition of consumption goods and services, as well as



valuables for own use or to give away, for and during tourism trips, which corresponds to monetary transactions (the focus of tourism expenditure), it also includes services associated with vacation accommodation on own account, tourism social transfers in kind and other imputed consumption. These transactions need to be estimated using sources different from information collected directly from the visitors, such as reports on home exchanges, estimations of rents associated with vacation homes, calculations of financial intermediation services indirectly measured (FISIM), etc. (TSA:RMF 2008, 2.25).

Turizm iste'moli: Turizm iste'moli turizm xarajatlari bilan bir xil rasmiy ta'rifga ega. Shunga qaramay, Turizmning sun'iy yo'ldosh hisobida foydalaniladigan turizm iste'moli tushunchasi turizm xarajatlaridan tashqariga chiqadi. Iste'mol tovarlari va xizmatlarini, shuningdek o'z foydalanishi yoki berish uchun, turistik sayohatlar uchun va pul operatsiyalariga to'g'ri keladigan qimmatbaho narsalarni sotib olish uchun to'langan summadan tashqari (turizm xarajatlarining yo'nalishi), shuningdek, u bilan bog'liq xizmatlarni ham o'z ichiga oladi. o'z hisobidan dam olish uchun turar joy, naturadagi turizm ijtimoiy transfertlari va boshqa hisoblangan iste'mol. Bu tranzaksiyalar to'g'ridan-to'g'ri tashrif buyuruvchilardan to'plangan ma'lumotlardan farqli manbalar yordamida baholanishi kerak, masalan, uy almashinuvi to'g'risidagi hisobotlar, dam olish uylari bilan bog'liq ijara haqini baholash, bilvosita o'lchangan moliyaviy vositachilik xizmatlarini hisoblash (FISIM) va boshqalar (TSA:RMF 2008). , 2.25).

6. Tourism expenditure: Tourism expenditure refers to the amount paid for the acquisition of consumption goods and services, as well as valuables, for own use or to give away, for and during tourism trips. It includes expenditures by visitors themselves, as well as expenses that are paid for or reimbursed by others (IRTS 2008, 4.2).

Turizm xarajatlari - bu iste'mol tovarlari va xizmatlarini, shuningdek qimmatbaho narsalarni o'z foydalanishi yoki sovg'a qilish uchun, turistik sayohatlar uchun va sayohatlar paytida sotib olish uchun to'langan mablag'ni anglatadi. U tashrif buyuruvchilarning o'zlari tomonidan qilingan xarajatlarni, shuningdek boshqalar tomonidan to'lanadigan yoki qoplanadigan xarajatlarni o'z ichiga oladi (IRTS 2008, 4.2).

7. Tourism industries: The tourism industries comprise all establishments for which the principal activity is a tourism characteristic activity. Tourism industries (also referred to as tourism activities) are the activities that typically produce tourism characteristic products. The term tourism industries is equivalent

to tourism characteristic activities and the two terms are sometimes used synonymously in the IRTS 2008, 5.10, 5.11 and figure 5.1.

Turizm industriyasi: Turizm industriyasiga asosiy faoliyati turistik xarakterli faoliyat hisoblangan barcha korxonalar kiradi. Turizm industriyasi (shuningdek, turizm faoliyati deb ataladi) odatda turizmga xos mahsulotlar ishlab chiqaradigan faoliyat turlaridir. Turizm industriyasi atamasi turizmga xos faoliyat turlariga ekvivalentdir va bu ikki atama ba'zan IRTS 2008, 5.10, 5.11 va 5.1-rasmda sinonim sifatida ishlatiladi.

8. Tourism trip: Trips taken by visitors are tourism trips (IRTS 2008, 2.29).

Turistik sayohat: Tashrif buyuruvchilarning sayohatlari turistik sayohatlardir (IRTS 2008, 2.29).

9. Tourist (or overnight visitor): A visitor (domestic, inbound or outbound) is classified as a tourist (or overnight visitor), if his/her trip includes an overnight stay, or as a same-day visitor (or excursionist) otherwise (IRTS 2008, 2.13).

Turist (yoki tungi tashrif buyuruvchi): Tashrif buyuruvchi (ichki, kiruvchi yoki chiquvchi) turist (yoki tungi tashrif buyuruvchi), agar uning safari tunashni o'z ichiga olsa yoki bir kunlik tashrif buyuruvchi (yoki ekskursionist) sifatida tasniflanadi. IRTS 2008, 2.13).

10. Travel / traveller: Travel refers to the activity of travellers. A traveller is someone who moves between different geographic locations, for any purpose and any duration (IRTS 2008, 2.4). The visitor is a particular type of traveller and consequently tourism is a subset of travel.

Sayohat / sayohatchi: Sayohat sayohatchilarning faoliyatini anglatadi. Sayohatchi - bu har xil geografik joylashuvlar o'rtasida istalgan maqsadda va istalgan muddatda harakatlanadigan kishi (IRTS 2008, 2.4). Tashrifchi sayohatchilarning ma'lum bir turi va shuning uchun turizm sayohatning bir qismidir.

11. Travel group: A travel group is made up of individuals or travel parties travelling together: examples are people travelling on the same package tour or youngsters attending a summer camp (IRTS 2008, 3.5).

Sayohat guruhi: Sayohat guruhi birgalikda sayohat qiluvchi shaxslar yoki sayohat partiyalaridan iborat: misollar bir xil paketli turda sayohat qilayotgan odamlar yoki yozgi lagerga qatnashayotgan yoshlardir (IRTS 2008, 3.5).

12. Travel item (in balance of payments): Travel is an item of the goods and services account of the balance of payments: travel credits cover goods and services for own use or to give away acquired from an economy by non-residents during

visits to that economy. Travel debits cover goods and services for own use or to give away acquired from other economies by residents during visits to other economies (BPM6, 10.86).

Sayohat moddasi (to'lov balansida): Sayohat - bu to'lov balansining tovarlar va xizmatlar schyotining moddasi: sayohat kreditlari o'z foydalanishi uchun yoki norezidentlar tomonidan iqtisodiyotdan sotib olingan tovarlar va xizmatlarni o'z ichiga oladi. iqtisodiyot. Sayohat debetlari rezidentlar tomonidan boshqa iqtisodlarga tashriflar chog'ida o'z foydalanishi yoki boshqa iqtisodlardan sotib olgan tovarlar va xizmatlarni qoplaydi (BPM6, 10.86).

13. Trip: A trip refers to the travel by a person from the time of departure from his/her usual residence until he/she returns: it thus refers to a round trip. Trips taken by visitors are tourism trips.

Safar: Sayohat deganda odamning odatdagi yashash joyidan chiqib ketganidan to qaytib kelguniga qadar qilgan sayohati tushuniladi: demak, bu safarga borishni bildiradi. Tashrifchilar tomonidan amalga oshiriladigan sayohatlar turistik sayohatlardir.

### **Xulosa**

Taxlil natijalaridan shuni anglash mumkinki, O`zbek tilida turizm terminologiyasi ilk shakllanish bosqichida bo`lib, soha rivoji natijasida uning tarkibi yangi maxsus birliklar bilan boyib bormoqda.

Turizm iqtisodiy faoliyat natijasida dastlab Angliyada vujudga kelganligi uchun uning vatani sifatida shu hudud e`tirof etiladi. Shuningdek, xalqaro turizm terminologiyasida ingliz tilining yetakchi mavqeda ekanligini inobatga olsak, o`zbek tilidagi o`zlashmalarning asosiy qismi shu tildan o`zlashganligi tabiiy holdir, albatta. Ikki til ya`ni o`zbek va ingliz tillarini bir soha-turizm terminologiyalari bo`yicha qiyoslaganimizda, o`zbek tilida ayrim terminlarning o`z holicha, ayrimlarining muqobil varianti qo`llanganligining guvohi bo`ldik. Ingliz tilida ko`plab terminlar inglizchada berilgan. Ammo bu tilda ham boshqa tillardan olingan so`zlarni uchratishimiz mumkin.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, o`zbek tilidagi mavjud turizm terminlarining izohli, elektron va tarjima lug`atlarini yaratish o`zbek terminologiyasining muhim vazifalaridan biridir.



### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. O`quv qo`llanma. - Toshkent: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011.
2. Биржаков М.Б. Введение в туризм. - СПб.: Издательский Торговый Дом «Герда», 2009. - 444 с.
3. Aliyeva M.T., Xo'jayev O'. X., Norchayev A.N. Turizm rivojlanishini prognozlash. O`quv qo`llanma. - T.: TDIU, 2006. - 214 b.
4. Ушаков Д.С. Технология выездного туризма. Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2009. - 240 с.
5. Aliyeva M.T., Mirzayev M. va boshqalar. Turizm huquqi. O`quv qo`llanma. - T: Talqin, 2003. - 245 b.
6. Косолюнов А.Б. Теория и практика экологического туризма. Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2007. - 253 с.
7. Ушаков Д.С. Технология выездного туризма. Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2009. 240 с.
8. Travel Guide Uzbekistan. - Tashkent: National Company Uzbekturizm, 2003. - 10 p.
9. Hospitality, Tourism and heisure Management: Issues in Streegy and Culture. - London, 2003. - 265 p.
10. Bonifase Priseilla. Managing Quality Cultural Tourism. - London, 2001. - 223 p.
11. Tourism, Crime and International Security Issues / md.By Abraham Pizam and Yoe / Mans Fold. Chichester; John Wiley Sons, 2001. - 269 p.
12. Алиева М.Т. Развития индустрии туризма // Международные Плехановские чтения, 19 апреля РЭА. им.Г. В. Плеханова. - М., 2006.
13. Алиева М.Т. Тенденции развития туризма в Узбекистане // Пятнадцатые международные Плехановские чтения, 27 апреля РЭА.им. Г.В.Плеханова. - М., 2002.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Под ред. А. Мадвалиева и др. - В 5-и т. - Тошкент:Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006-2008. - I - 679 с.; II - 671 с.; III - 687 с.; IV - 606 с.; V - 591 с.
15. Oxford Dictionary of English. - Oxford: Oxford University Press, 2003.
16. Longman dictionary. - <http://global.longmandictionaries.com/>
17. [www.uzbekturizm.uz](http://www.uzbekturizm.uz)